

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Namangan viloyati Yangiyo'rg'on tumani 20-Ixtisoslashtirilgan DMTT tarbiyachisi

Abdurahimova Gulnoza Ilhomjanovna

Annotatsiya: ushbu maqolada maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim jaryonini tashkil etish, uning samarali usullarining ahamiyati yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ usullar, interfaol metodika, induvidning xususiyatlari.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'limda ham yangi innvatsiyalarni qo'llash, yangidan-yangi texnologiyalar va fan yutuqlaridan foydalanish tobora rivojlanib bormoqda. Shu o'rinda ta'lim tizimining barcha jabhalariga mos kelolmaydigan qatlam borligi ham ajinarli holat. Lekin, shunday bo'lsada davlatimizda olib borilayotgan ta'lim dasturlari bu qatlamni ham qamrab olishga intilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning qay tana a'zosi nafaol bo'lishidan qat'iy nazar har guruh uchun maxsus ta'lim shakllari mavjud. Bu jarayonni amaliyotga tatbiq etish maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyachilariga bog'liq bo'lib bormoqda. Bola va ota-onaning tushkunlik depressiya, tashqi muhitdan uzulish, ta'limdan va aqliy-ruhiy rivojlanish holatlaridan orta qolish tendensiyalarini kamaytirgan holda, kasb mahorati, pedagogik salohiyat, aktyorlik qobilyatini qo'llab bunday bo'shliqni ta'limga olib kirish, ularni ishontirish o'z kasbining ustalari ya'ni, tarbiyachiga chambarchas bog'liq jarayondir. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish borasida ularning jismoniy va aqliy-ruhiy holatlari inobatga olingan tarzda guruhlarga bo'linib, ta'lim shakllari shu asosida tanlab olinadi. Shartli ravishda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni quydagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

Aqliy yoki jismoniy rivojlantirishda nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun:

- 1) nutki buzilgan (eshitish qobilyati saqlangan);
- 2) eshitish [qobilyati buzilgan](#);
- 3) ko'rish qobilyati buzilgan;

- 4) tayanch xarakter a'zolari buzilgan;
- 5) ruxiy rivojlanishda orqada qolayotgan;
- 6) aqliy rivojlantirishda orqada qolayotgan;
- 7) sil kasalligiga chalingan;
- 8) tez-tez kasallikka chalinadigan;
- 9) sarikq (virusli gippatit) bolalari uchun.

Yuqorida holatlarni inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi.¹ Jismoniy yoki aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar bo'lgan bolalarning ta'lim olishi va davolash orqali sog'lomlashtirilishi quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

- ta'lim, tarbiya va davolash (sog'lomlashtirish)ning korreksion yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning maxsus metodologiyasidan foydalanish;
- o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga tabaqalashtirilgan holda yondashish;
- Maxsus maktabgacha muassasada ta'lim va tarbiyani tashkil etish;
- bolalarning individual xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etish;
- maxsus maktabgacha muassasa belgilangan davlat normativlariga, maktabgacha ta'limga va davolashga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalash, o'qitish, qarash, parvarish qilish va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Ko'rib turganimizdek, tarbiyachilarning maxsus ta'lim va tarbiya olib borishlari bilan bir qatorda ulardan har bir induvidga kreativ yondashish emotsional holatlarini hisobga olish shuning sabr-toqatli mahorat zarur bo'ladi.

Maxsus maktabgacha muassasada guruhlarining to'ldirilishi bolalarning toifasiga va ularning yoshiga (ikki yoshdan boshlab va undan katta yoshdagi bolalar) qarab va tegishli ravishda quyidagicha belgilanadi albatta bu omil bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayoni uchun muhim hisoblanadi:

nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun — 10 — 12 bola;

faqat 3 yoshdan katta bo'lgan nutqida fonetik-fonematik nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun — 12 — 15 bola;

¹ <https://lex.uz/docs/-1647036>

kar bolalar uchun — 8 bola;

yaxshi eshitmaydigan bolalar uchun — 10 — 12 bola;

ko‘zi ojiz bolalar uchun — 6 bola;

yaxshi ko‘rmaydigan bolalar, ambliopiyali, g‘ilay bolalar uchun — 6 — 10 bola;

tayanch-harakatlanish a‘zolarida nuqsonlar bo‘lgan bolalar uchun — 6 — 10 bola;

3 yoshgacha intellektida nuqsonlar bo‘lgan bolalar (aqliy qoloqlik) uchun — 6 bola;

uch yoshdan katta yoshdagi jiddiy aqliy orqada qolgan bolalar uchun — 10 bola;

sil intoksikatsiyasi mavjud bo‘lgan bolalar uchun — 15 — 20 bola;

tez-tez kasallikka chalinadigan bolalar uchun — 15 — 20 bola;

nuqsonlari murakkab bo‘lgan (ikki yoki undan ortiq nuqsonlar) bolalar uchun — 8 — 10 bola;

rivojlanishida boshqa chetga chiqishlar bo‘lgan bolalar uchun (endokrin kasalliklar) — 15 — 20 bola.²

Maxsus maktabgacha ta‘lim muassasalarida ta‘lim qatnashuvchilari quyidagilardan iborat:

Tarbiyalanuvchilar, pedagoglar, tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar maxsus maktabgacha muassasada ta‘lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadi.

Maxsus maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyalanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

maktabgacha ta‘limni, tibbiy xizmat ko‘rsatishni bepul olish;

O‘zbekiston Respublikasida tasdiqlangan maxsus maktabgacha muassasa uchun sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq oziq-ovqat bilan ta‘minlanish.

Xulosa qilib aytganda Prezidentimizning uzliksiz ma‘naviy ta‘lim-tarbiya jarayonining qatnashchilarining asl bosqichlaridagi ta‘limni maxsus maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilari va mas‘ul xodimlari shakllantirib rivojlantirib bermoqlari lozim. Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning tarbiya berayotgan avval o‘zi tarbiyalangan

² DAVLAT MAXSUS MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDAgI qonun

bo'lmog'i, tarbiya oluvchilarning bog'bonidir degan so'zlarida pedagoglarga katta mas'uliyat yuklatilgani yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://advice.uz/oz/document/2663?keyword=>
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/abu-nasr-forobiy-va-abu-rayxon-beruniylarning-ta-limiy-axloqiy-qarashlari>
3. <https://lex.uz/docs/5049511#5054384>
4. <https://lex.uz/docs/5049511#5054384>
5. A. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq"
6. DAVLAT MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDagi qonun